



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

2025-yil 3-son

VOLUME 5 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI**

“Jurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev,
K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnoma

№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2025-yil 27-iyunda
bosmaxonaga topshirildi.

Qog‘oz bichimi: A4.

Shartli bosma tabog‘i: 22,8

Adadi: 100. Buyurtma: № 84.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:

100047. Toshkent shahri,

Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAS‘UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSh)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Шарипов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев, К. Абдувалиева, Й. Махмудов, М. Шарифова, Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
27.06.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 22,8. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 84.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 27.06.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 22,8.

Units: 100. Order: № 84.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law. 100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimkhonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Akhmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Kh. Khayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

S. Kholboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Rakhmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne’matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA’MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

11 RAXIMOV DILMURODJON G’ULOMJON O’G’LI

Davlat xizmatini tasniflash va ushbu jarayonda davlat fuqarolik xizmatining o’rni

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

23 RUZINAZAROV SHUXRAT NURALIYEVICH

Xususi huquq fani sohasida ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy-metodologik tahlili: muammo va yechimlar

36 G’AYBULLAYEV ALISHER ISMATOVICH

Tovar omborida omonat saqlash munosabatlarini fuqarolik-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish

46 QILICHOVA MUNIRA AZIMJON QIZI

Islom moliyasi normalariga muvofiq mudoraba shartnomasida kapital kafolati masalalari

62 G’AFFOROV MEHRANGIZ SHAVKATOVICH

Ulushdorlar ulush kiritish asosidagi qurilish shartnomasining zaif tarafi sifatida

73 SIDIKOV RUSTAM

Xalqaro huquqda uchuvchisiz uchish apparatlarining huquqiy tabiati: tasniflash yondashuvlari va suverenitet masalalari

85 SARABEKOV A’ZAMJON ABDUQODIROVICH

Blokcheyn va smart-kontraktlardan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda foydalanish

92 ZIYAMOV BOBURXON

Raqamli diplomatiya va sun’iy intellekt: xalqaro huquqda tartibga solish jihatlari

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

102 XABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH

Fuqarolik protsessida vakillik instituti: o’ziga xos ahamiyati va xususiyatlari

111 XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O’G’LI

Oilaviy nizolarda mediatsiya

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

125 NIGMATOV RUFTULLO OLIMDJONOVICH

Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir ilg’or tajribalari va ularning ayrimlarini milliy tizimga joriy etish masalalari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

134 **XUDAYBERGENOV BAXRAM KUANISHBAEVICH, PARAXATOVA SHAXNOZA YERNAZAROVNA**

Ekspertiza tadqiqoti uchun namunalar olish tergov harakati sifatida: nazariy va amaliy masalalar

146 **SADRIDDINOVA LATOFAT HUSNIDDIN QIZI**

Apellyatsiya va kassatsiya: ushbu yuqori instansiyalarning sud tizimidagi o'рни

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

155 **XALIQULOV KOMOLIDDIN NOSIROVICH**

Xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo'yicha davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda xalqaro shartnomalarning ahamiyati

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

166 **YULDASHEV MAQSUD MAMASOLIYEVICH**

Bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirishning huquqiy asoslari tahlili

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI
TA'MINLASH. PROBATSIYA FAOLIYATI

175 **DJUMANIYAZOVA DILFUZA KAMALOVNA, SHAYAKUBOV SHOMANSUR SHAKABILOVICH**

Ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish masalalari:
Toshkent viloyati va Toshkent shahri misolida

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

11 РАХИМОВ ДИЛМУРОДЖОН ГУЛОМЖОН УГЛИ

Классификация государственной службы и место государственной гражданской службы в этой системе

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

23 РУЗИНАЗАРОВ ШУХРАТ НУРАЛИЕВИЧ

Научно-методологический анализ научных исследований в области частного права: проблемы и решения

36 ГАЙБУЛЛАЕВ АЛИШЕР ИСМАТОВИЧ

Дальнейшее гражданско-правовое совершенствование отношений по хранению вещей на товарном складе

46 КИЛИЧОВА МУНИРА АЗИМЖОН КИЗИ

Вопросы гарантии капитала в договоре мудараба с точки зрения норм исламского финансирования

62 ГАФФОРОВ МЕХРАНГИЗ ШАВКАТОВИЧ

Долящики как слабая сторона договора долевого строительства

73 СИДИКОВ РУСТАМ

Правовая природа беспилотных летательных аппаратов в международном праве: классификационные подходы и вопросы суверенитета

85 САРАБЕКОВ АЪЗАМЖОН АБДУКОДИРОВИЧ

Использование блокчейна и смарт-контрактов в гражданско-правовых отношениях

92 ЗИЯМОВ БОБУРХОН

Цифровая дипломатия и искусственный интеллект: аспекты регулирования в международном праве

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

102 ХАБИБУЛЛАЕВ ДАВЛАТЖОН ЮЛЧИБОВЕВИЧ

Институт представительства в гражданском процессе: его значение и особенности

111 ХУДОЙНАЗАРОВ ДАДАХОН АВАЗ УГЛИ

Медиация в семейных спорах

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

125 НИГМАТОВ РУФТУЛЛО ОЛИМДЖОНОВИЧ

Передовой опыт Великобритании в борьбе с преступностью и вопросы его имплементации в национальную систему

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА,
ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

134 **ХУДАЙБЕРГЕНОВ БАХРАМ КУАНЫШБАЕВИЧ, ПАРАХАТОВА ШАХНОЗА ЕРНАЗАРОВНА**

Получение образцов для экспертного исследования как следственное действие:
теоретические и практические вопросы

146 **САДРИДДИНОВА ЛАТОФАТ ХУСНИДДИН КИЗИ**

Апелляция и кассация: роль высших инстанций в судебной системе

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

155 **ХАЛИКУЛОВ КОМОЛИДДИН НОСИРОВИЧ**

Значение международных договоров в регулировании межгосударственных отношений
по признанию и исполнению судебных решений иностранных государств

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

166 **ЮЛДАШЕВ МАКСУД МАМАСОЛИЕВИЧ**

Правовой анализ основ преобразования таможенных органов в сферу, свободную
от коррупции

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

175 **ДЖУМАНИЯЗОВА ДИЛЬФУЗА КАМАЛОВНА, ШАЯКУБОВ ШОМАНСУР ШАКАБИЛОВИЧ**

Вопросы совершенствования системы работы с молодёжью, относящейся к группе
социального риска: на примере города Ташкента и Ташкентской области

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 11 **RAKHIMOV DILMURODJON GULOMJON UGLI**
Classification of civil service and the role of state civil service in this system

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 23 **RUZINAZAROV SHUKHRAT NURALIYEVICH**
Scientific and methodological analysis of research in the field of private law: problems and solutions
- 36 **GAYBULLAYEV ALISHER ISMATOVICH**
Further improvement of civil-legal relations of storage in a warehouse
- 46 **KILICHOVA MUNIRA AZIMJON KIZI**
Issues of capital guarantee in mudarabah contract from the perspective of islamic finance norms
- 62 **GAFFOROV MEHRANGIZ SHAVKATOVICH**
Shareholders as a weakness of the contract of share construction
- 73 **SIDIKOV RUSTAM**
The legal nature of unmanned aerial vehicles in international law: classification approaches and issues of sovereignty
- 85 **SARABEKOV AZAMJON ABDUKODIROVICH**
The use of blockchain and smart contracts in civil law relations
- 92 **ZIYAMOV BOBURKHON**
Digital diplomacy and artificial intelligence: regulation aspects in international law

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 102 **KHABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**
The institute of representation in civil procedure: its significance and characteristics
- 111 **KHUDOYNAZAROV DADAHON AVAZ UGLI**
Mediation in family disputes

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

- 125 **NIGMATOV RUFTULLO OLIMDJONOVICH**
Advanced experience of Great Britain in combating crime and issues of implementing some of them in the national system
-

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

134 **KHUDAYBERGENOV BAKHRAM KUANI'SHBAEVICH, PARAKHATOVA SHAKHNOZA YERNAZAROVNA**

Obtaining samples for expert examination as an investigative action: theoretical and practical issues

146 **SADRIDDINOVA LATOFAT HUSNIDDIN KIZI**

Appeal and cassation: the role of these higher instances in the judicial system

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

155 **KHALIKULOV KOMOLIDDIN NOSIROVICH**

The importance of international treaties in the regulation of interstate relations on the recognition and execution of judicial rulings (decisions) of foreign states

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

166 **YULDASHEV MAQSUD MAMASOLIYEVICH**

Analysis of the legal basis for transforming customs authorities into a corruption-free sphere

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

175 **DJUMANIYAZOVA DILFUZA KAMALOVNA, SHAYAKUBOV SHOMANSUR SHAKABILOVICH**

Issues of improving the system of working with youth belonging to socially risk groups: on the example of Tashkent region and the city of Tashkent

Kelib tushgan / Получено / Received: 03.05.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 11.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./FDCD3814
UDC: 347.9(045)(575.1)

FUQAROLIK PROTSESSIDA VAKILLIK INSTITUTI: O'ZIGA XOS AHAMIYATI VA XUSUSIYATLARI

Xabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy
protsessual huquqi kafedrasini mudiri,
yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0002-8355-3983
e-mail: davlat.xabibullayev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakillik instituti, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Xususan, fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakillik qilish tushunchasi, uning ahamiyati va bu borada huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari o'rganib chiqilgan. Suddagi vakillik tushunchasi tahlil qilinib, ushbu tushunchaga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan. Shuningdek, ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasining "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni tahlil etilib, bu boradagi huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tadqiq etilgan. Bundan tashqari, maqolada fuqarolarning malakali yuridik yordam olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash, ishonch bildiruvchi shaxsga uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini sudga himoya qilishda yordam berish, hozirgi kunda fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasida vakil bilan advokat maqomining o'zaro nisbati, advokatning sud protsessida ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinib, takliflar ishlab chiqilgan. Xulosa qismida vakil bilan advokat maqomining o'zaro nisbati, advokatning protsessual huquq va majburiyatlari, advokatning sud protsessida ishtirokining o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik sudi, odil sudlov, vakil, advokat, suddagi vakillik, sud orqali himoyalanih, malakali yuridik yordam, bepul yuridik yordam, vakilning protsessual huquq va majburiyatlari

ИНСТИТУТ ПРЕДСТАВИТЕЛЬСТВА В ГРАЖДАНСКОМ ПРОЦЕССЕ: ЕГО ЗНАЧЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ

Хабибуллаев Давлатжон Юлчибоевич,
доктор юридических наук, профессор,
заведующий кафедрой «Гражданское
и экономическое процессуальное право»
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В настоящей статье рассмотрены институт представительства в гражданском судопроизводстве, его значение и особенности. В частности,

анализируется понятие представительства в гражданском процессе, раскрывается его роль, а также исследуются научно-теоретические подходы юристов к данному понятию. Автор предлагает собственное определение термина «представительство в суде». Кроме того, рассматриваются постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 мая 2010 года «О применении судами норм гражданского процессуального законодательства о представительстве», Закон Республики Узбекистан «О предоставлении юридической помощи за счёт государства», а также научные мнения и теоретические взгляды в этой области. Отдельное внимание уделяется обеспечению конституционного права граждан на квалифицированную юридическую помощь, содействию представителя в защите прав и законных интересов доверителя в суде, соотношению процессуального статуса адвоката и представителя в современной теории гражданского процессуального права, а также особенностям участия адвоката в судопроизводстве. В заключительной части статьи освещены различия и сходства в правовом положении адвоката и иного представителя, процессуальные права и обязанности адвоката, а также характерные черты его участия в гражданском процессе.

Ключевые слова: гражданский суд, правосудие, представитель, адвокат, представительство в суде, судебная защита, квалифицированная юридическая помощь, бесплатная юридическая помощь, процессуальные права и обязанности представителя

THE INSTITUTE OF REPRESENTATION IN CIVIL PROCEDURE: ITS SIGNIFICANCE AND CHARACTERISTICS

Khabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich,
Head of the Department of Civil Procedural
and Economic Procedural Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law, Professor

Abstract. This article analyzes the institution of representation in civil proceedings, its significance, and specific features. In particular, the concept of representation in civil proceedings, its significance, and the scientific and theoretical views of legal scholars on this issue have been studied. The concept of representation in court was analyzed, and an author's definition of this concept was developed. This article also analyzes the Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated May 14, 2010, "On the Application by Courts of the Norms of Civil Procedure Legislation on Representation," the Law of the Republic of Uzbekistan "On the Provision of Legal Assistance at the Expense of the State," and examines the scientific and theoretical views of legal scholars in this area. In addition, the article examines and develops proposals for ensuring the constitutional right of citizens to receive qualified legal assistance, assisting the principal in protecting their rights and legitimate interests in court, the relationship between the status of a representative and a lawyer in the theory of civil procedural law, and the specific features of the lawyer's participation in court proceedings. The conclusion section outlines the relationship between the status of a representative and a lawyer, the procedural rights and obligations of a lawyer, and the specific features of the lawyer's participation in court proceedings.

Keywords: civil court, justice, representative, lawyer, legal representation, judicial protection, qualified legal assistance, free legal assistance, procedural rights and obligations of a representative

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 65-moddasiga ko'ra, fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan yoki o'z vakillari orqali yuritishi mumkin. Fuqaroning ishda shaxsan ishtirok etishi uni ish bo'yicha vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi. Tashkilotlar ishlarni o'z rahbarlari yoki vakillari orqali yuritadi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar orasida vakillar muhim o'rin egallaydi. Chunki fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilishda, ularga malakali yuridik yordam ko'rsatishda vakillik o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu borada Sh.Sh. Shoraxmetov o'z fikrini bildirib: "Fuqarolar va yuridik shaxslar fuqarolik ishlarini sudlarda, aksariyat hollarda o'zlari bevosita yuritadilar. Ammo ba'zi sabablarga ko'ra, chunonchi: kasallik, komandirovkada bo'lish, huquq normalaridan yetarli darajada xabardor bo'lmaslik, muomala layoqatiga ega bo'lmaslik va boshqa sabablar bilan da'vogar va javobgar shaxslar sud ishini yuritishni boshqa shaxsga (vakilga) topshirishlari mumkin. Sudda vakillik qilish institutining ahamiyati fuqarolar va tashkilotlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xolisona haqiqatni belgilash, nizoning mazmuni yuzasidan to'g'ri qaror qabul qilishda sudga ko'maklashishdan iboratdir", – deb ta'kidlaydi [1]. Ushbu fikrga qo'shilgan holda aytish mumkinki, sudda vakillik qilish ishda ishtirok etuvchi shaxslarning buzilgan huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini sud orqali samarali himoya qilishning protsessual kafolati hisoblanadi.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakillik institutiga oid dissertatsiyalar, dissertatsiya avtoreferatlari, ilmiy maqolalar, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RBQ va boshqa qonun hujjatlari, O'zbekiston

Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori va mavzuga oid boshqa ilmiy materiallardan foydalanilgan. Tadqiqot doirasida huquqiy fanlardagi ilmiy metodlar: tizimli-huquqiy tahlil, taqqoslash, qiyosiy huquqiy, induksiya va deduksiya kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida sudda vakillik qilish tushunchasi yoritilmagan. Lekin O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarorda: "Suddagi vakil – ishonch bildiruvchi shaxs nomidan va uning manfaatlarini uchun berilgan vakolat doirasida protsessual harakatlar sodir etadigan hamda huquqlarini amalga oshirishda unga yordam beradigan jismoniy shaxsdir", – deb tushuntirish berilgan.

Yuridik adabiyotlarda suddagi vakillik tushunchasiga turli xil ta'riflar berilgan. Huquqshunos olim M.M. Mamasiddiqovning fikricha: "Sudda vakillik qilish institutining fuqarolik huquqidagi vakillikdan avvalambor, uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib farqlash mumkin. Sudda vakillik qilishning maqsadi – fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqlarini sudda himoya qilishda yordam berish hamda sudga ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashda va nizoning to'g'ri hal qilinishida yordam berish hisoblanadi. Shuning uchun suddagi vakil bilan ishonch bildiruvchi o'rtasidagi moddiy – huquqiy munosabatlarning mavjudligi protsessual munosabatlarning kelib chiqishi uchun asos bo'ladi" [2].

K.K. Olimovanning fikricha: "Suddagi vakillik instituti vakillik ostidagi shaxs nomidan unga maqbul bo'lgan hal qiluv qarori chiqarishga erishish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat, shuningdek, vakillik ostidagi shaxsning huquqlarini ro'yobga oshirishga

va sudda uning huquqlari buzilishining oldini olishga yordamlashuvchi hamda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida ta'rif berish to'g'ri bo'ladi" [3].

R.A. Sidorovning fikricha: "Sudda vakillik – fuqarolarning malakali yuridik yordam olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash, ishonch bildiruvchi shaxsning uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini sudda himoya qilishda yordam berish va fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishda sudga yordam berish maqsadida muayyan fuqarolik ishini yuritishda yoki alohida protsessual harakatni amalga oshirishda sud va vakil o'rtasida yuzaga keladigan fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlari bo'lib, unga ko'ra, vakil o'z vakolatlari doirasida ishonch bildiruvchi shaxs nomidan uning manfaatlarini ko'zlab ish yuritadi. Sudda vakillikning fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlari sifatida ta'rifini shakllantirishda muallif tomonidan uning muhim belgilari (elementlari) sifatida vakillikning aniq maqsadga yo'naltirilganligi; subyektiv tarkibi; obyekti; mazmuni; bir shaxsning boshqa shaxs nomidan va uning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadidagi faoliyati; vakilning vakolatlari ko'rsatib berilgan" [4].

N.V. Perepelkina, A.S. Kuskov [5], O.A. Ruzakovalar [6] fuqarolik protsessual qonunchiligining tarkibi nuqtayi nazaridan fuqarolik protsessida vakillik huquqiy munosabat sifatida qarashadi. Ushbu pozitsiyaga ko'ra, vakillik vakil va sud o'rtasida rivojlanadigan huquqiy munosabatlardir.

Y. Nekrasovanning fikricha: "Sudda vakillik bir shaxs (ishonch bildiruvchi shaxs) manfaatlarini vakolatni o'tkazish orqali ishonch bildirilgan bo'lsa, boshqaning nomidan vakilga berilgan vakolatlar asosida, amalga oshiriladigan huquqiy munosabatlar hisoblanadi, shuningdek, adolatli qaror qabul qilish, ishonch bildiruvchilarning huquqlarini amalga oshirish, ularni buzilishlarini oldini olish va jarayonda fuqarolik holatlari-

da sud ma'muriyatiga yordam berish tushuniladi" [7].

E.S. Aloyanning fikriga ko'ra: "Protsessual vakillikning mohiyatini o'zaro bog'liq va birbirini to'ldiruvchi quyidagilar orqali ochib berish maqsadga muvofiq: huquqiy munosabatlar tizimi (ichki va tashqi); muayyan yuridik ahamiyatga ega oqibatlar olib keladigan dinamik protsess (ishonch bildiruvchi uchun protsessual oraliq va yakuniy moddiy-huquqiy oqibatlar); zamonaviy protsessual huquqning mustaqil instituti" [8].

Umumiy asoslarda yuqorida olimlar tomonidan vakillik faoliyatiga ta'rif berilganda vakillikning vujudga kelish asoslari, vakil va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatlar, vakolatlarni rasmiylashtirish tartibi, asoslari, vakolatlarni tasdiqlovchi hujjatlar, sud tomonidan vakilning tayinlanishi, ixtiyoriy va shartnomaviy vakillik turlaridan kelib chiqilib yondashilganligini ko'rishimiz mumkin. Har bir olim o'z qarashlari va huquq tizimi nuqtayi nazaridan ta'rif berib fikrlarini ifodalagan. Shu sababli ham har bir berilgan ta'riflarda o'z asoslari va yondashuv usullari mavjud. Shunga ko'ra, biz ham sudda vakillik qilish tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin:

Sudda vakillik qilish ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida ishonch bildiruvchining buzilgan huquq va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sudda himoya qilish, malakali yuridik yordam ko'rsatish, sudlar tomonidan odil sudlovning amalga oshirilishiga ko'maklashishdan iboratdir.

V.A. Guk vakillikning maqsadi haqida to'xtalib, vakillikdan maqsad ishonch bildiruvchiga nafaqat malakali yuridik yordam ko'rsatish, balki fuqarolik ishlarini ko'rib chiqishda sudga ko'maklashishdir degan fikrni ilgari suradi [9].

K.K. Olimovanning fikricha: "Sudda vakillik qilishning maqsadi – fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqlarini sudda himoya qilishda yordam berish hamda sudga ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashda va

nizoning to‘g‘ri hal qilinishida yordam berish hisoblanadi. Shuning uchun suddagi vakil bilan ishonch bildiruvchi o‘rtasidagi moddiy-huquqiy munosabatlarning mavjudligi protsessual munosabatlarning kelib chiqishi uchun asos bo‘ladi” [10].

V.A. Guk va K.K. Olimovalarning fikrlariga munosabat bildiradigan bo‘lsak, ular vakillikning fuqarolik ishlarini sudda ko‘rib chiqishda ko‘maklashish funksiyasiga alohida urg‘u qaratgan. Ya‘ni vakil ishonch bildiruvchi shaxsning nomidan vakillikni amalga oshirish bilan bir qatorda isbotlash va dalillarni taqdim etish majburiyati o‘zining zimmasiga yuklatilganligi sababli ham ishni ko‘rib chiqishda sudga ko‘maklashish sifatida baholanadi. Taraflarning vakili isbotlash funksiyasini amalga oshirishda boshqa bir tomondan qaraydigan bo‘lsak o‘ziga o‘zi ko‘maklashadi. Ularning taqdim etgan dalillari sud uchun isbotlash vositasi bo‘lishi mumkin. O‘zlari uchun esa manfaatlariga xizmat qiluvchi faktlar sanaladi.

Ma‘lumki, fuqarolik protsessual qonunchilik sud ishlarini yuritishda shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida advokatlar, birgalikda ishtirok etuvchilardan birining topshirig‘i bo‘yicha boshqa ishtirokchilar bilan bir qatorda taraflar, uchinchi shaxslar tomonidan tanlangan shaxslarni ham nazarda tutar edi. Biroq tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sudda shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida taraflar, uchinchi shaxslar tomonidan tanlangan shaxslarning, xususan oliy yuridik ma‘lumotga, ya‘ni huquqshunoslik sohasida maxsus bilim va ko‘nikmalarga yoki yuridik yordam ko‘rsatish uchun litsenziyaga ega bo‘lmagan shaxslarning ishtirok etishi fuqarolarning muhim konstitutsiyaviy huquqi bo‘lmish – sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini amalda ta‘minlanmasdan qolishiga olib keldi [11]. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, mazkur holatlar malakali, professional yuridik yordam olish bo‘yicha fuqarolarga bir qator noqulayliklar keltirib

chiqardi. Shuning uchun ham fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilishda, ularga malakali yuridik yordam ko‘rsatishda shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida advokat ishtiroki muhim o‘rin egallaydi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yil-larga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuvlik prinsiplarini ro‘yobga chiqarish, ya‘ni protsessual qonunchilikda advokatning vakolatlarini, shu jumladan, dalillarni to‘plash va taqdim etish vakolatlarini kengaytirish, davlat hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga bepul yuridik yordamni jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma‘muriy ishlar bo‘yicha ham ko‘rsatish tizimini joriy etish, advokatning protsessual maqomini kuchaytirish kabi maqsad va vazifalarni belgilanishi advokatura sohasidagi islohotlarni yangi bosqichini boshlab beradi.

Ushbu davlat dasturi ijrosini ta‘minlash maqsadida 2023-yil 16-iyunda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 9-moddasida kam ta‘minlangan shaxslar, agar ular fuqarolik ishlari bo‘yicha da‘vogarlar yoki javobgarlar sifatida ishtirok etishsa davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar etib belgilandi. Shuningdek, ushbu Qonunning 11-moddasida mazkur shaxslar fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga taalluqli bo‘lgan quyidagi:

- ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash hamda to‘lash to‘g‘risidagi;
- ishga tiklash haqidagi;
- ish haqini undirish to‘g‘risidagi;
- alimentlarni undirish haqidagi;

– uyga kiritish, turar joydan foydalanish huquqini yo‘qotgan deb topish va ko‘chirish to‘g‘risidagi;

– mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqning boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek, boquvchining vafot etganligi tufayli yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash haqidagi;

– O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 991-moddasida nazarda tutilgan tartibda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlarining va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega ekanligi mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida 2024-yil 27-fevraldagi O‘RQ-915-sonli Qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 65-moddasi: “Sud da‘vogarning yoki javobgarining iltimosiga ko‘ra, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta‘minlash choralarini ko‘rishi shart.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokat jalb etiladigan paytga qadar sud ishning muhokamasini keyinga qoldiradi. Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatni jalb qilishda advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e‘tiboran unga ishga kirishish uchun kamida to‘rt soat vaqt berilishi kerak”, – degan mazmundagi to‘rtinchi va beshinchi qismlar bilan to‘ldirildi.

Ushbu kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar o‘z navbatida fuqarolarning sud jarayonlarida bepul malakali yuridik yordam

olish huquqini huquqiy jihatdan mustahkamлади hamda professional yuridik yordam sifatini va advokat kasbining nufuzini oshirishga, shuningdek, sud ishini yuritishda tenglik va tortishuv prinsiplarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Darhaqiqat, hozirgi kunda fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasida vakil bilan advokat maqomining o‘zaro nisbati, advokatning sud protsessida ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu masala yuzasidan ilmiy manbalarda turli xil fikrlar ilgari surilgan. Masalan, E.S. Aloyanning qayd etishicha, fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish jarayonida sud va sud protsessining boshqa ishtirokchilari o‘rtasida protsessual huquqiy munosabatlar vujudga kelganligi sababli vakil o‘ziga berilgan huquq va majburiyatlar majmuasini amalga oshirishda fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarda nisbatan mustaqil subyekt sifatida harakat qiladi [8].

R.A. Sidorov vakilning protsessual maqomini: vakil ishda ishtirok etuvchi shaxs ham emas, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxs ham emas deb tasniflaydi. Uning fikricha vakilning protsessual maqomi murakkab bo‘lib, u o‘ziga berilgan vakolatlarni amalga oshiradigan, mustaqil protsessual huquq va majburiyatlarga ega shaxs hisoblanadi [4]. Ushbu fikrga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki vakil ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida ishning boshidan oxirigacha ishtirok etadigan, ishning yakuniy natijasidan ham moddiy ham protsessual manfaatdor shaxs hisoblanadi.

S.S. Kazixanovanning fikricha: “Agar vakilni jarayonga qabul qilish (kiritish) uchun asos vakillikni turlarga ajratish mezon sifatida qaralsa, shartnomaviy vakil uchun bunday asos shartnoma emas, balki ishni yuritish uchun to‘g‘ri bajarilgan vakolatlarning mavjudligi hisoblanadi. Shartnoma vakilining vakolatlari

esa har doim ham ishonchnoma bilan tasdiqlanmaydi” [12].

Y.E. Kolokolova fuqarolik protsessida vakillik institutini ikki turga bo’ladi, ya’ni professional va noprofessional vakillik. Advokat fuqarolik protsessida vakil sifatida fuqarolik sud ishlarini yuritishning subyekti bo’lib, yetarli bilim va tajribaga ega bo’lgan, o’zing protsessual faoliyatining sifati, o’z vaqtida va samaradorligi uchun mas’ul bo’lgan professional shaxs hisoblanib, jismoniy va yuridik shaxslarning sud orqali himoyalanih va malakali yuridik yordamga bo’lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshiradi. Advokat vakillikning boshqa subyektlaridan farqli ravishda protsessual qonunchilikda uning alohida maqomi to’g’risida huquqiy norma kiritish lozimligini ta’kidlagan. Uning fikricha, vakilning protsessual maqomi tarkibiga fuqarolik protsessida taraflar va uchinchi shaxslarning subyektiv (protsessual) huquqlari, taraflarning, uchinchi shaxslarning protsessual majburiyatlari va qonuniy manfaatlar, fuqarolik protsessual huquq layoqati va muomala layoqati, subyektiv protsessual huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarining fuqarolik protsessual kafolatlari, javobgarlik kabi elementlar va huquqiy toifalar kiradi [13].

Y.M. Xaleppo vakil va advokat o’rtasida o’zaro farqli jihatlarni tahlil qilib, ulardan advokat vakillik institutining boshqa subyektlaridan farqi advokat tomonidan amalga oshiriladigan sud vakillikning vujudga kelishining huquqiy asoslari sifatida murakkab yuridik tarkibni tashkil etuvchi yuridik faktlar deb xulosaga kelgan. Ishda yuridik fakt (advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o’rtasida shartnoma tuzish) vakillik asoslarining murakkab huquqiy tarkibining tarkibiy qismlaridan biri va o’zaro bog’liq harakatlar zanjirida birinchi bo’lib ko’rsatilgan. Advokatga murojaat qilish, advokatni tanlash, shartnoma tuzish, advokatning sudga vakolatini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish – order va (yoki) ishonchnoma [14]. Uning

fikricha, advokatning huquqiy maqomi protsessda boshqa vakillarning huquqiy maqomidan farq qilib, advokatga vakil sifatida vakolat berishning yanada murakkab tartibi belgilanganligi ta’kidlangan. Advokatlik guvohnomasi va order advokatning “statik” maqomini tasdiqlab, ularning elementi advokatura to’g’risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlardir. Advokatning vakil sifatidagi huquqiy maqomining alohida elementi bu uning javobgarligi, ya’ni advokatlik tuzilmasi oldidagi intizomiy javobgarlik, ishonch bildiruvchi shaxs oldidagi fuqarolik (mulkiy) javobgarlik va protsessual javobgarlik [15].

E.S. Aloyan tadqiqot mavzusi doirasida vakildan farqli ravishda advokatning fuqarolik jamiyati instituti sifatida asosiy xususiyatlarini belgilab beradi. Bular: advokatura mustaqilligi, shu jumladan, uning faoliyatiga davlat organlari tomonidan aralashishdan davlat kafolatlari bilan himoyalanganligi, advokatlar hamjamiyatining o’zini-o’zi tartibga solishi; advokat uchun qonun talablariga ko’ra kafolatlangan advokatlarning professionalligi; professional advokat xizmatlarining mavjudligi, advokat rioya qilishi shart bo’lgan axloqiy me’yorlarning mavjudligi, shuningdek, ushbu qoidalarga rioya qilmaslik uchun javobgarlikning mavjudligi [12].

Xulosalar

Yuqoridagi olimlar S.S. Kazixanova, Y.E. Kolokolova, Y.M. Xaleppo, E.S. Aloyanlarning fikr-mulohazalaridan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, vakil va advokatning o’zaro nisbati, ishda ishtirok etish xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

– advokat vakillikni boshqa turidan o’zaro huquqiy maqomi bilan farq qiladi. Ya’ni advokat maqomiga ega bo’lish uchun oliy yuridik ma’lumotga ega bo’lish, advokatlik faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O’zbekiston Respublikasining fuqarosi bo’lish talab etiladi. Vakillikning boshqa turlarida esa bunday talab mavjud emas;

– advokat yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha yozma ravishda shartnoma tuzadi, boshqa vakillar esa shartnoma tuzmaydi;

– sudda ish yuritish bo'yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug'ullanishi mumkin, ular boshqa vakillik turidan professionalligi, yuridik soha bo'yicha mutaxassisligi, fuqarolarning malakali yuridik yordam olish kabi konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ajralib turadi;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarorining 13-bandiga ko'ra, shartnoma bo'yicha ayrim vakillar ishga kirishishiga ijozat berilishi uchun qonun sudga ishonchnomadan tashqari yana boshqa hujjatlar taqdim etilishini talab qiladi, jumladan: ishonch bildiruvchining qarindoshlari uchun – ishonch bildiruvchi va vakil orasida qarindoshlik aloqalarini tasdiqlovchi hujjatlar; yuridik shaxsning rahbari uchun – uning mansab mavqeyini tasdiqlovchi hujjat. Advokat ish-

ga kirishishi uchun advokatlik guvohnomasi va advokatlar tuzilmasi tomonidan berilgan order taqdim etilishi kifoya bo'lib, u advokatga yuridik yordam so'rab murojaat etgan shaxs manfaatlarini sudda himoya qilish huquqini (FPK 69-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqlardan tashqari) beradi;

– vakil va advokatning javobgarlik masalasi, ya'ni ishonch bildiruvchi shaxs oldidagi fuqarolik (mulkiy) javobgarlik va protsessual javobgarligi, advokatning advokatlik tuzilmasi oldidagi intizomiy javobgarligi kabi masalalar bilan ham o'zaro nisbati turlicha. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 145-, 220-moddalariga ko'ra, advokat sud majlisida raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysunmagan taqdirda u ogohlantirilishi, uzrsiz sabablar bilan sudga kelmasa, sud xususiy ajrim chiqarishi va O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga yuborishi belgilangan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasiga ko'ra, advokatning intizomiy javobgarligi belgilangan.

REFERENCES

1. Shoraxmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar [Comments to the Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2010, p. 75.
2. Mamasiddiqov M. Fuqarolik protsessi [Civil proceedings]. Tashkent, Bactria Publ., 2014, p. 72.
3. Olimova K.K. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakilning ishtirok etish muammolari [Problems of participation of a representative in civil litigation]. Tashkent, TSIL Publ., 2011, p. 18.
4. Sidorov R.A. Predstavitel'stvo v grazhdanskom protsesse [Representation in Civil Proceedings]. Tver, 2003, pp. 12–13.
5. Perepyolkina N.V., Kuskov A.S. Evolyutsiya i pravovaya sushchnost' predstavitel'stva v grazhdanskom prave i protsesse [Evolution and legal essence of representation in civil law and procedure]. *Laws of Russia: Experience, Analysis, Practice*, 2015, vol. 9, p. 92.
6. Ruzakova O.A. Kommentariy k Grazhdanskomu protsessuall'nomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary to the Civil Procedure Code of the Russian Federation]. *Civil Procedure Bulletin*, 2014, vol. 5, p. 117.
7. Nekrasova Ye. Predstavitel'stvo v nemetskom grazhdanskom protsesse [Representation in German civil proceedings]. *Arbitration and Civil Procedure*, 2010, vol. 11, pp. 30–32.

8. Aloyan E.S. Institut predstavitelstva v sivilisticheskom protsessualnom prave [The Institute of Representation in Civilistic Procedural Law]. Saratov, 2021, p. 17.
9. Guk V.A. Predstavitel'stvo v grazhdanskom protsesse: pravozashchitnaya funktsiya i aktual'nyye voprosy sovershenstvovaniya zakonodatel'stva [Representation in civil proceedings: human rights function and current issues of improving legislation]. *Legal Science and Law Enforcement Practice*, 2014, vol. 2, p. 24.
10. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. Tashkent, TSUL Publ., 2020, p. 182.
11. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the legal framework for civil litigation]. Tashkent, QQMI Publ., 2013, p. 68.
12. Kazikhanova S.S. Predstavitel'stvo po naznacheniyu suda v grazhdanskom sudoproizvodstve [Representation by appointment of the court in civil proceedings]. Moscow, 2015, p. 28.
13. Kolokolova Ye.E. Advokat – predstavitel' v rossiyskom grazhdanskom protsesse [Advocate - representative in Russian civil proceedings]. Saratov, 2005, p. 12.
14. Khaleppo Ye.M. Pravovoye polozheniye advokata kak uchastnika grazhdanskogo i arbitrazhnogo protsessa v Rossiyskoy Federatsii [The legal status of a lawyer as a participant in civil and arbitration proceedings in the Russian Federation]. Moscow, 2012, p. 22.
15. Habibullayev D.Y. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual adolat va protsessual qonuniylikning o'zaro tahlili [Mutual analysis of procedural fairness and procedural legality in the Conduct of civil court cases]. *Jurisprudence*, 2024, vol. 4, no. 4, pp. 105–113.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 3-SON

VOLUME 5 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3.